

---

**DUNYO STANDARTI BO'YICHA BOLALAR MEHNATI VA MEHNAT  
EXSPLUATATSIYASI**

**Ozodkhon Tulanboeva**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** bolalar mehnati va mehnat ekspluatatsiyasi — bu global muammo bo'lib, u millionlab bolalarning hayoti va kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar mehnati va ekspluatatsiyasi global miqyosda jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Har bir bola xavfsiz va sog'lom sharoitlarda o'sishi, ta'lim olishi va o'z potensialini amalga oshirishi kerak.

**Kalit so'zlar:** bolalar mehnati, ijtimoiy omillar, iqtisodiy omillar, xalqaro standartlar, ijtimoiy omillar, samarali strategiyalar, barqaror rivojlanish.

**Аннотация:** детский труд и эксплуатация — глобальная проблема, которая негативно влияет на жизнь и будущее миллионов детей. Детский труд и эксплуатация остаются серьёзной глобальной проблемой. Каждый ребёнок должен расти в безопасных и здоровых условиях, получать образование и реализовывать свой потенциал.

**Ключевые слова:** детский труд, социальные факторы, экономические факторы, международные стандарты, эффективные стратегии, устойчивое развитие.

**Abstract:** child labor and exploitation is a global problem that negatively affects the lives and futures of millions of children. Child labor and exploitation remain a serious global problem. Every child should grow up in safe and healthy conditions, receive education and fulfill their potential.

**Keywords:** child labor, social factors, economic factors, international standards, social factors, effective strategies, sustainable development.

Bolalar mehnati tarix davomida turli darajada mavjud bo'lib kelgan. XIX asr va XX asr boshlarida G'arb mamlakatlarida hamda ularning mustamlakalarida kambag'al oilalarning 5-14 yoshli ko'plab bolalari mehnat qilgan. Bu bolalar asosan qishloq xo'jaligida, uyda yig'ish ishlarida, fabrikalarda, konlarda va gazetachi bolalar kabi xizmat ko'rsatish sohalarida ishlagan - ba'zilari hatto 12 soatlik tungi smenalarda ham mehnat qilgan. Oilalar daromadining oshishi, maktablarning ko'payishi va bolalar mehnatini taqiqlovchi qonunlarning qabul qilinishi natijasida bolalar mehnati hollari kamayib bordi. Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi dayrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har

bir kishi kamolotida va umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bog`cha yoshidagi bolalarni jismoniy, aqliy axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o`ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etiladi, unga to`g`ri rahbarlik qilingandagina yetarli natijaga erishish mumkin. Faoliyatni rejalashtirish mehnat tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatining tartibsiz, rejasiz ekanligini ko`rsatadi. Bolalar bunday harakatlar orqali biror natijaga erishish uchun juda ko`p vaqt va kuch sarflaydilar, shu bilan bir vaqtida o`z ishlaridan o`zlar qoniqmaydilar. Kichik bog`cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o`z-o`ziga xizmatdir. Bu kichik bolalar uchun ancha mashaqqatli ish. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o`rgatishda ko`pincha o`yin vaziyatlaridan foydalaniladi («Qo`g`irchoqni sayrga otlantiramiz», «Qo`g`irchoqni uxlatamiz» va shularga o`xshashlar). Avvaliga bolalar o`yin obrazi orqali mehnatga o`rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o`rganadilar. Sekin-asta o`z- o`ziga xizmat qilish malaka va ko`nikmalari shakllana boradi. Ta`lim-tarbiyaviy ishning mazmuni maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoiy-foydali mehnat bo`lib, narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, ular har bir kishi va butun xalq uchun zarur ekanligi to`g`risida tushuncha berib boriladi. Masalan, o`simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish orqali ulardan olinadigan mahsulot kimlar uchun va nima maqsadda ishlatilishi to`g`risida bilim va tushunchalar berib boriladi. Kattalarning mehnati bilan tanishtirish yana quyidagi maqsadni ko`zlab ham amalga oshiriladi: kattalar mehnati to`g`risida aniq bilim va tasavvurlar berish, mehnatni va mehnat natijalarini qadrlashga o`rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbat uyg`otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash va ishni sifatli bajarishga o`rgatish. Tabiatdagi mehnat bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo`lib, o`simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat to`g`risidagi bilimlar manbayi, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga ehtiyojkorlik munosabatini tarbiyalash vositasidir, shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o`g`itlash, ko`chatni o`tkazish, o`simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat malaka va ko`nikmalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi, ularning sog`ligini mustahkamlaydi.

Qo`l mehnati - mashg`ulot, o`yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo`lgan o`yinchoq va qurilmalarni tayyorlash bo`yicha bolalar mehnatidir (qog`oz qiyqimlarini tashlash uchun, o`simliklar urug`i uchun qutichalar, qo`g`irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o`xshash narsalar tayyorlash). Qo`l mehnatini bajarish orqali bola natijaga erishadi narsa, buyum vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo`yash, qirqish, arralash, mix qoqishni, tikish va shunga o`xshash oddiy mehnat malaka va ko`nikmalarini egallab oladilar. Bolalar

mehnati va mehnat ekspluatatsiyasi — bu global muammo bo'lib, u rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq uchraydi. Biroq, bu masala nafaqat kam rivojlangan davlatlar, balki rivojlangan mamlakatlarda ham dolzarbdir. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bolalar mehnatini kamaytirishga qaratilgan bir qator standartlar va konventsionalni ishlab chiqqan.Bolalar mehnati — bu 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishi. Bu faoliyat turli shakllarda bo'lishi mumkin.Bolalar ko'pincha qishloq xo'jaligi sohasida ishlaydi, bu esa ularning sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin. Ba'zi bolalar sanoat korxonalarida ishlashga majbur bo'ladi, bu esa xavfli sharoitlarda ishlashni anglatadi.Bolalar xizmat ko'rsatish sohasida ham ishlaydi, masalan, restoranlarda yoki uyda xizmat ko'rsatishda.Mehnat ekspluatatsiyasi — bu bolalarning mehnatidan foydalanishning nohaq vaadolatsiz shakli. Bu holatda bolalar past maoshlar bilan yoki umuman maosh olmasdan ishlashga majbur qilinadi. Ularning ish sharoitlari ko'pincha xavfli va sog'liq uchun zararli bo'ladi. BMTning Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (1989) va ILOning Bolalar mehnati to'g'risidagi konvensiyalari (No. 138 va No. 182) bolalar mehnatini kamaytirishga qaratilgan asosiy hujjatlardir. Ushbu konvensiyalar bolalarning mehnatidan foydalanishni cheklash va ularning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi.Bolalar mehnati va ekspluatatsiyasining asosiy sabablari quyidagilar.Ota-onalarning iqtisodiy ahvoli bolalarni ishlashga majbur qiladi. Ko'plab bolalar ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi, bu esa ularning kelajakdagi imkoniyatlarini cheklaydi.

Ba'zi joylarda bolalar mehnati an'anaviy hisoblanadi va bu holatni o'zgartirish qiyin.Bolalar mehnati va mehnat ekspluatatsiyasi — bu jiddiy muammo bo'lib, uni hal qilish uchun xalqaro hamjamiyat, davlatlar va jamiyatlar birgalikda harakat qilishlari zarur. Bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning ta'lim olishini ta'minlash orqali biz kelajak avlodni himoya qilishimiz mumkin. Har bir bola o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun xavfsiz va qulay sharoitda yashashi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Работа с криптовалютой//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. No10(91), 2021. С. 18-21.